

MORPHOLOGY AND IMPORTANCE IN MEDICINE OF THE STINGING COWRAK (FERULA ASSA-FOETIDA) PLANT

Rustamova Zebiniso O'ktam kizi

Student of Termez State Pedagogical Institute

Annotation-this article covers an overview of the cowrak plant, its role in Systematics, types, distribution in nature (including information about the species listed in the Red Book), significance, role in folk medicine and method of application.

Keywords: Cowrak, Department, Family, category, flower , leaf , gulband , Red Book , stinging cowrak , leaf plate, elliptical, ferulic acid, glue-Tar, hypendocarpium, mesocarp, essential oil, Helena cowrag, Tajik cowrag.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar xalqimiz tomonidan qo'llab quvvatlanmoqda va amalda o'z ifodasini topmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi PF-116-son "Respublikada kovrak yetishtirishni rivojlantirish va sanoatlashtirishni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq Respublikada yovvoyi holda o'suvchi kovrak o'simligi tabiiy zaxiralarini saqlash, ularning qayta tiklanishini ta'minlash, madaniy usulda kovrak plantatsiyalarini yaratish hamda qayta ishlash korxonalari va uy- xo'jaliklari o'rtasida kooperatsiyani yo'lga qo'yish, kovrakdan olinadigan xomashyoni qayta ishlash hamda tayyor va yarim tayyor mahsulot sifatida eksportga chiqarishni rag'batlantirish, shuningdek, sohaga investitsiyalarni keng jalb qilish maqsadida qator ishlarni amalga oshirish belgilab olindi.

Kovrak– (Ferula assa-foetida) o'simligining sistematik o'rni. Magnoliyatoifa-Magnoliophyta, Angiospermae-gulli yoki yopiq urug'li o'simliklar bo'limi. Ziradoshlar oilasi-(Apiaceae). Sassiqli kovrak- Ferula turkumi. Kovrak (Ferula) — ziradoshlar (soyabonguldoshlar) oilasiga mansub ko'p yillik o'tlar turkumi. O'zbekistonda 45 turi o'sadi. Sassiqli Kovrakning bo'yi 1 metrgacha, ildizi sholg'omsimon, diametri 15 santimetrgacha. Poyasi tik, yo'g'on, ichi kovrak, yuqori qismi shoxlangan. Barglari asosan to'pbarglardan iborat bo'lib, ular ildiz bo'g'zida joylashadi. Ildizoldi barglari bandli, 3 bo'lakli, poyadagilari maydaroq, ketma-ket joylashgan. Ularning yaproqlari (barg plastinkasi) uch bo'lakli, har bir bo'laklar uch segmentli bir necha karra patsimon qirqilgan. Poyadagi barglar to'pbarglarga nisbatan kichikroq, yaxshi rivojlangan barg novlari (qinlari) orqali poyaga o'rtnashadi.

To'pguli yirik, sharsimon, diametri 20 sm, yon to'pgullari maydaroq. Erta bahorda gullaydi. Soyabongullar asosan qipiqsiz, supurgisimon, joylashishi bo'yicha ular ikki xil: markazdagisi asosan ikki jinsli gullardan tashkil topsa, yon soyabonda joylashgan gullar faqat changchili gullardan (yoki changchili va ikki jinsli gullardan) iborat bo'ladi. Yon soyabongullar markaziy soyabongulning asosida joylashgan bo'ladi.

Gullari: ikki jinsli yoki faqat changchili oddiy soyabongulda joylashadi. Gulkosabarglari tishsiz yoki faqat qipiq holda tez to'kilib ketadigan. Gultoj barglari 1 dan 4 mm gacha uzunlikda, sarg'ish yoki och sarg'ish, oqish rangli, butun (qirilmagan) uchki qismi buralgan, elliptik, teskari tuxumsimon, lansetsimon, uchi to'mtoq yoki uchli, asosan tuxsiz, ba'zan tashqi tomoni tukli bo'ladi. Changchisi 5 ta, urug'chisi 1 ta, ikkita mevbargdan iborat. Tugunchasi 2 , ayrim hollarda 3 uyali. Changchisi 0,5-0,8 mm uzunlikda, ellipssimon, sarg'ish, jigarrang va binafsha ranglarda. Chang donachalari 3 pushtali uzunchoq ellipssimon.

Gul formulasi esa quyidagicha ifodalanadi: Ca(5-0), Co5, A5, G(2)-.



Mevalari tashqi qismidan siqilgan, yapaloq yoki biroz egilgan. Tashqi tomondagi qobirg`alari ipsimon, chekka qirralaridagisi qanotchasimon. Karpofori erkin, ikki bo'lakli. Mezokarp ikki qavatli, ichki qavati yog'ochlangan parenxima hujayralar (gipendokarpiy) dan iborat.

Tashqi tomondagi qobiqlari ipsimon, chekka qirralaridagisi qanotchasimon. Karpofori erkin, ikki bo'lakli. Mezokarp ikki qavatli, ichki qavati yog'ochlangan parenxima hujayralar (gipendokarpiy) dan iborat.



Kimyoviy tarkibi: Yelim-smola tarkibi 9.35-65.15 % gacha smolalar, 12-48% yelim va 5.8-20% efir moyidan tashkil topgan. Smolalardan ferul kislotasi, asarezen, asarezenatanol, asarezinol va ularning ferul kislotasi bilan hosil qilgan efirlari hamda farniziferol va umbelliferon birikmalari ajratib olingan.

Efir moyi asosan organik sulfidlardan (65% gacha) tashkil topgan bo'lib, tarkibida pinen va oksikumarin ham bo'ladi.

Ahamiyati: Kovrakning yelim-smolasi xalq tabobatida tomir tortishi, o'pka sili, o'lat, zaxm, ko'k-yo'tal, tish og'rig'i, asab va boshqa kasalliklarni davolash uchun, hamda quvvat beruvchi, balg'am ko'chiruvchi va gijja haydovchi dori sifatida qo'llaniladi.

Ushbu turkumga oid bir qancha turlar O'zbekiston Respublikasi Qizil Kitobiga kiritilgan. Ularga: Sumbul kovrak, Tuganakli kovrak, Qizilqum kovragi, Pratov kovragi, Fedchenko kovragi, Korjinskiy kovragi, O'rinbosar kovrak, Yelena kovragi, Tojik kovragi va boshqa ko'pgina turlarini misol qilib keltirish mumkin. Bulardan biri, Pomir-Oloy tizmasida son jihatdan qisqarib borayotgan, areali bo'lingan, endemik o'simlik -Tojik kovragi hisoblanadi. U ko'p yillik monokarp o'simlik hisoblanib, bo'yi 1.5-1.8 metrni tashkil qiladi. Sarimsoqqa xos kuchli hidga ega. Ildizi yo'g'on, vertikal ildizpoyali. Oddiy kaudeksli. Poyasi yakka, barglari yumshoq, nozik, tezda so'lib qoladi, yuqori qismi deyarli tuksiz. To'pguli- keng, shingilli. Soyabonlari ko'p, deyarli barchasi meva tugadi. Soyabonchalari 15-20 gulli, o'rama bargchasiz. Gulbandlari qisqa, 0.5-0.8 sm. Kosachabrglarining tishchalari mayda, uch qirrali. Gultobjarglari sariq, 2-2.5 sm uzunlikda, cho'zinchoq-ellipssimon. Mevasi 1.9-2.7 sm uzunlikda, eni esa 0.9-1.2 sm, teskari tuxumsimon, cho'zinchoq-tuxumsimon, ovalsimon yoki ellipssimon, orqa tomondan siqilgan, yassi, tuksiz. Aprel-may oylarida gullab, iyun-iyul oylarida mevalaydi.

Tarqalishi: Kovrak respublikamizning Toshkent, Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Navoiy, Buxoro viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston respublikasining qumli cho'llar, adirlar, tog'lar va tog'oldi yalangliklarda, soz tuproqli yerlarda o'sadi. Janubiy Tojikiston, O'rta Osiyo (Janubi-

<https://conferencea.org>

February 28th 2023

G'arbiy Pomir-Oloy), Janubiy O'zbekiston endemigi (Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari). Mahalliy aholi kovrak turkumining har xil turlariga qarab sassiq kovrak, rova, ravshak, kamol, mo'rcha kamol va boshqa nomlar bilan atashadi.

O'sish sharoiti: Tog'larning pastki va o'rta qismidagi yonbag'irlarida va qoyalarda o'sadi. O'simlik soni va arealining o'zgarish sabablari shuki, ushbu o'simlik turi so'nggi 20 yil mobaynida tabiatdan foydalanuvchilar tomonidan o'simlik shirasining rejasiz va nazoratsiz yig'ib olinishi natijasida tabiiy zaxiralari va populyatsiyalarining o'sish maydonlari keskin qisqarishi kuzatilmoqda.

Shuningdek, ushbu o'simlik O'zR FA Botanika instituti mutaxassislari tomonidan xo'jalik shartnomalari asosida Bobotog' o'rmon xo'jaligi hududlarida sun'iy plantatsiyalari tashkil etilgan, madaniylashtirilgan.



Kovrakning juda yosh novdalarini yanchib, qatiqqa qorib xavfli shishlar va zaxmga davo qilinadi. Yelim-smola tindirmasi (nastoykasi), emulsiya va xabdori holida astma, tomir tortish va asab kasalliklarida ishlatiladi.

Ilmiy meditsinada kovrak yelim-smolasi – “assa fetida” nomi bilan kukun, emulsiya va tindirma (nastoyka) holida og'riq qoldiruvchi, balg'am ko'chiruvchi, yel haydovchi, quvvat beruvchi va tinchlantiruvchi vosita sifatida ishlatiladi va ko'pgina davlatlar farmokopeyasiga kiritilgan.

Buyuk tabib Ibn Sinoning fikriga ko'ra, “Kovrak urug'ining qaynatmasi (urug' huddi supurginikiga o'xshash malla rang, shakli ham shunga o'xshab ketadi) 3 mahal 50 grammdan ichilsa, ona suti ko'payadi. Yelimi suvga qo'shib ichilsa, darhol ovoz chiqadi. Shirasiga anjir qo'shib yeyilsa, sariq kasalligini tuzatadi. Yelimiga murch, sirka qo'shib, yomon sifatli yaralarga surilsa, foyda qiladi. Soch to'kilishiga ham o'ta foydalidir. Kovrak bosh miya, skleroz, bronxit, astma, sariq kasal, ko'k yo'tal, diabetga davo, qon ketishini to'xtatadi. Ishtahani ochadi. Ildizi tomchilab siydik va buyrak og'riqlariga davo. Uch mahal qaynatmasidan 30 grammdan ichilsa, foyda qiladi (muddati 15 kun). Ildiz qaynatmasi barcha og'riqlarni bosadi. Bo'g'ilishni ketkazadi og'riqni tuzatadi”. Ildizi tarkibida 9% gacha smolalar bor. Smolada 0.4% gacha efir moyi bor. Tibbiyotda ildizi va ildiz yelimi-smolasi qo'llaniladi. Ildizidan olingan yelim-smola (qurigan sut shirasi) - “Assa-foyetida” smolalardan, yelimdan, efir moyidan va boshqa birikmalardan (umbelliferon kumarin, ferula kislotasi va uning smola spirtlari bilan hosil qilgan efirlari) dan tarkib topgan.

Prezident farmoniga ko'ra, kovrak yetishtirish bilan shugullanuvchi tadbirkorlik subyektlariga bir qator imtiyozlar nazarda tutilgan. Xususan, 1-maydan boshlab 3 yil davomida kovrak yetishtirishdan olgan daromadlari joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha jami daromadning kamida 80%ini tashkil etadigan tadbirkorlik subyektlaridan olinadigan foyda, mol-mulk va yer solig'i, shuningdek, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 50% miqdorida qo'llaniladi. Joriy yilning 1-iyulidan to 2025-yilgacha “Yaylov xo'jaligini rivojlantirish” uyushmasi tizimidagi subyektlarda faoliyat olib borayotgan mavsumiy ishchilar uchun ijtimoiy soliq stavkasini 1% miqdorda undiriladi.

XULOSA

Kovrak o'simligi yer yuzida bir xil tarqalmagan, asosan tog' va tog'oldi hududlarda tarqalgan. Shuning uchun kamyob o'z o'rnida dorivorlik xususiyatiga ham ega o'simlikdir. Ba'zi turlari masalan: Sharq mamlakatlarida Eron, Pokiston, Afg'oniston va Hindiston kovrak shirasi va ildizi oziq-ovqat sanoatida ziravor sifatida, kosmetika sanoatida, attorlik vositalari ishlab chiqarishda ishlatiladi. Tibbiyotda ildizi va ildiz yelimi-smolasi qo'llaniladi. Kovrakning yelim-smolasi xalq tabobatida tomir tortishi, o'pka sili, o'lat, zaxm, ko'k-yo'tal, tish og'rig'i, asab va boshqa kasalliklarni davolash uchun, hamda quvvat beruvchi, balg'am ko'chiruvchi va gijja haydovchi dori sifatida qo'llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi PF-116-son "Respublikada kavrak yetishtirishni rivojlantirish va sanoatlashtirishni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Toshkent-2000 .-1- jild
3. Xamidov .A ,Nabiyev.M, Odilov.T. O'zbekiston o'simliklari aniqlagichi.-Toshkent: "O'qituvchi" -1987.
4. Xoliqov.K.O'zbekiston janubidagi dorivor o'simliklar.Toshkent: "Mehnat",1992
5. S.M.Mustafayev. Botanika (anatomiya, morfologiya, sistematika) "O'ZBEKISTON"-Toshkent, 2002.